

## **SHAVKAT RAHMONNING “O‘LIM BIRLASHTIRAR BEGONALARNI” SHE’RI TAHLILI**

**Xudoyberdiyeva Durdona Umrzoq qizi**

Guliston davlat pedagogika institute O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi 1-bosqich talabasi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada XX asr o‘zbek she‘riyatining yirik vakili Shavkat Rahmon hayoti va ijodi tahlil qilinadi. Uning she‘riyati mavzu va uslubiy jihatdan chuqur falsafiy ma‘no kasb etgani, sevgi, tabiat, insoniy his-tuyg‘ular va o‘lim mavzulari bilan boyligi yoritiladi. Ayniqsa, “O‘lim birlashtirar begonalarni” she‘rining falsafiy mohiyati tahlil qilinib, uning ijtimoiy va adabiy ahamiyati ochib beriladi.

**Kalit so‘zlar:** Shavkat Rahmon, o‘zbek she‘riyati, falsafiy she‘rlar, lirika, sevgi, tabiat, o‘lim, tarjima, ijodiy uslub.

**Аннотация:** В данной статье анализируется жизнь и творчество Шавката Рахмана-крупного представителя узбекской поэзии XX века. Его поэзия имеет глубокий философский смысл в плане темы и метода, насыщена темами любви, природы, человеческих переживаний и смерти. В частности, анализируется философская сущность стихотворения “Смерть объединяет чужих”, раскрывается его социальная и литературная сущность.

**Ключевые слова:** Шавкат Рахман, узбекская поэзия, философские стихи, лирика, любовь, природа, смерть, перевод, креативный стиль.

**Annotation.** This article analyzes the life and work of Shavkat Rahmon, a major representative of 20<sup>th</sup>-century Uzbek poetry. It highlights the deep philosophical meaning of his poetry in terms of subject matter and style, and its richness in themes of love, nature, human emotions, and death. In particular, the philosophical essence of the poem “Death brings strangers together” is analyzed, and its social and literary essence is revealed.

**Keywords.** Shavkat Rahmon, Uzbek poetry, philosophical poems, lyrics, love, nature, death, translation, creative style

XX asr o‘zbek she‘riyatining iste‘dodli vakili, hajm jihatdan qisqa, ammo chuqur ma‘noli she‘rlar muallifi bo‘lgan Shavkat Rahmon 1950-yil 12-sentabrda O‘sh shahrida tug‘ilgan. Shoirning ilk to‘plami 1978-yilda “Rangin lahzalar” nomi ostida

bosib chiqariladi va shu tariqa she'riyat olamiga yana bir qalami o'tkir ijodkor kelib qo'shiladi.

Shundan so'ng shoirning "Yurak qirralari", "Ochiq kunlar". "Gullayotgan tosh", "Uyg'oq tog'lar", "Hulvo" kabi she'riy to'plamlari nashr qilinadi. Shuningdek, shoir tarjima ishlari bilan ham muvaffaqiyatli faoliyat ko'rsatib, ispan shoiri Gorsia Lorkaning she'rlarini ispan va rus tillaridan o'zbek tiliga tarjima qilgan.

"Shavkat aka Lorkaning she'rlarini tarjima qilib, ixchamgina kitobcha chop ettirdi. Kitobcha ko'pchilikka yoqqan bo'lsa-da, o'zining ko'ngli to'lmadi. Ispanchani o'rgana boshladi. Haftaning muayyan kunlari allaqaysi institutdan bir muallima kelib, xonamizda Shavkat akaning stoli yonida o'tirib, sekin-sekin mashg'ulot o'tkazardi. Doim hammadan kech keladigan Shavkat aka o'sha paytlari erta kelib, xonada dars qilardi..."-deydi [Shavkat Rahmonning hamkasbi Qutlibika Rahimboyeva].<sup>1</sup>Ushbu jumlar shoirning tarjima ishlariga naqadar chuqur kirishganining va o'z ishiga qanchalar ko'ngil qo'yganining yaqqol isboti bo'la oladi.

Yuqorida aytganidek, shoir o'tkir qalam sohibi bo'lgan. Shoir she'rlarining mavzulari, asosan, tabiat, go'zallik, sevgi, sadoqat, baxt va hijron hissiyotlari bilan yo'g'rilgan bo'lib, uning lirikasi insonlarni hayajonlantirgan, saboq bergan, o'yga solgan, quvonch va tashvishga qo'ya olgan.

Shoir ijodida, ayniqsa, tabiat haqidagi she'rlar juda mashhur bo'lib, ular o'ziga xos individual uslubda yaratilgan. Shoir ushbu she'rlarining ma'nolari zamirida ijtimoiy hayot muammolarini ko'rsatishga harakat qilgan.

Shoir faqat tabiat va sevgi, go'zallik mavzularini tarannum etmasdan, falsafiy mavlarda ham barakali ijod qilgan.

"Har bir shakllangan shoirning o'z tayanch nuqtasi bo'ladi. Shavkat Rahmonning o'sha jon joyi-iymon edi. Istagan she'rni olib qaraydigan bo'lsak, iymon sadolarini, Bilol aytgan azonlar jimirlashini, changak vijdon tomirlari qiynoqlarini, ta'qib qilinayotgan e'tiqodning yig'isini ilg'ash mumkin. Shavkat Rahmonning siri, suroni, salobati ana shunda edi!"- deydi [Iqbol Mirzo].<sup>2</sup>Darhaqiqat, shoirning she'r misralarini boshqalardan ajratib turadigan jihati-unda iymonning ustunlik qilishi edi.

Quyida Shavkat Rahmonning "O'lim birlashtirar begonalarni" she'ri bilan tanishamiz.

O'lim birlashtirar  
begonalarni,

---

<sup>1</sup> Qutlibika Rahimboyeva "Qutlibika. Shavkat Rahmon haqida xotiralar" 11.09.2023.

<sup>2</sup> Iqbol Mirzo "Shavkat Rahmonning siri. Shoirni yodga olib". 13.09.2023.

odamlar bir yoqdan yig‘ila kelar,  
bir ko‘zdan tikilar “jabrlangan”ga,  
faqat bir yurakdan yig‘ilar kelar.  
O‘lim birlashtirar  
beparvolarni  
kibr-u aldovlarning niqobin yirtar,  
yirtqichmas,  
dushmanmas odamga odam  
birodar ekanin eslatib ketar.  
...Mana,begonalar,  
beparvolar yo‘q,  
nihoyat odamlar birodar – tengdir.  
O‘limga bosh egdim,  
Qo‘rqqanimdanmas,  
hurmat qilganimdaan boshimni egdim.

(1983)

Ushbu she‘r falsafiy - diniy mavzuda yozilgan bo‘lib, insonni chuqur mulohazaga chorlaydi. She‘rda hech qanday bo‘rttirish, mubolag‘a holatlari uchramaydi. She‘r misralarini o‘qiyotgan o‘quvchi behosdan o‘limni yodga oladi. Inson qadrini, yashab o‘tkazgan umrini xotirlaydi, o‘lim bilan yuzlashishga tayyormanmi, yo‘qmi, deya o‘ylaydi. Hayot yo‘llaridagi ezgu amallari-yu chirkin qilmishlarini xotirlaydi. Aza marosimini, mahshar hodisalarini tasavvur qilib ko‘radi. She‘rning yozilgan yiliga e‘tibor qaratsak, mustabid tuzumining davri ekanligini ko‘rsatadi. Bu davrda diniy – falsafiy mazmundagi she‘rlarni yozish shoirdan katta jasorat talab qiladi.

She‘r  $6+5=11$  tarzida turoqlangan bo‘lib, o‘zbek tilida keng tarqalgan barmoq tizimining sodda vaznida yozilgan.

Avvalo, she‘rning sarlavhasiga ahamiyat beraylik, “O‘lim birlashtirar begonalarni” deyilgan. Darhaqiqat, har qanday inson ajal qarshisida bir xil mavqega ega: xoh shoh bo‘l, xoh gado, xoh olim bo‘l, xoh johil – ahamiyatli emas, o‘lim uchun buning hech qanday qiymati yo‘q. Ajaldan qochmoq, muqarrar o‘limdan qutilib qolmoq mumkin emas. Kun kelib,har bir jon o‘lim bilan yuzlashadi. Vaqti-soati yetganda har qanday mavjudod bu foniy dunyoni tark etadi va yakunida hamma insonlar bir joyga jamlanadi.

Bizning xalqimizda turli marosimlar mavjud va aza bu marosimlar ichida eng yirigi hisoblanadi. Marosim kuni vafot etgan insonning yaqinlari har tarafdin o‘lik chiqqan uyga kela boshlashadi. Marhumni oxirgi manzilga kuzatish uchun turli uduman‘analar amalga oshiriladi. Uzoq-yaqindagi qarindosh-u yaqinlardan tortib begona odamlar ham so‘nggi manzil kuzatuvchisiga aylanadi.

Shoir she‘rning ilk misralarida aynan shu holatni tasvirlaydi, ya‘ni marosimning boshlang‘ich pallasiga o‘quvchini jalb qiladi.

Keyingi misraga e‘tibor bersak,

bir ko‘zdan tikilar “jabrlangan”ga,  
faqat bir yurakdan yig‘ilar kelar,-

deyiladi.

Vafot etgan insonning “jabrlangan odam” ga qiyoslanishi ham juda o‘rinli. Ushbu qiyosga sabab qilib, avvalo, u insonning endi yorug‘ olamda mavjud emasligini aytishimiz mumkin, ikkinchidan, ma‘lumki, inson o‘z – o‘zidan vafot etmaydi. Yasharkan, qandaydir kasallik bilan og‘riydi, umri davomida hayot qiyinchiliklaridan iztirob chekadi, ruhiy va jismoniy zo‘riqishlar ostida eziladi. Ushalmay qolgan orzularning armonini tashiydi, adolatsizliklarni, baxtli davrlarning quvonchini qayta-qayta xotirlaydi, xotirlarkan, yangi iztiroblar yaratadi. Shu va shularga o‘xshash ko‘plab holatlar ushbu qiyoslashga asos bo‘la oladi.

Azada butun hissiyotlar ko‘zyosh orqali ifodalanadi. Bizning aza marosimlarida marhumning yaqinlariga qo‘shilib yig‘lash, ularning iztiroblariga sherik bo‘lish, marhum bilan bog‘liq yoqimli xotiralarni eslab, ko‘zyosh qilish, uning haqiga duo qilish odati bor. Shoir bu holatlarni ham she‘r misralariga mahorat bilan joylashtira olgan.

Keyingi misralarda o‘lim beparvo, kibr-u havoli insonlarni ham jamlay olishi haqida aytiladi. Darhaqiqat, insonning tog‘day kibr-u g‘ururi ajal oldida bir chaqalik qiymatga ega emas. Shuningdek, o‘lim aldov va xiyonatga barham berib, uning niqobini yirta oladigan qudratga ega ekanligi haqida so‘z boradi. O‘lim yolg‘onchi odamlarni ham o‘zi bilan olib ketganligi uchun aldovga barham beradi, xiyonatkorlarning xiyonatini bitiradi.

Haqiqatan ham, inson bolasi qanchalik fisq-u fasodga boy bo‘lmasin, har qadamida aldov va xiyonat bilan hayot kechirmasin, o‘lim va u haqidagi xabar qarshisida hamisha ojiz bo‘lib qolaveradi. Shum xabarni eshigach, uchiga chiqqan

fasodchi insonning ham eti junjikadi, uning ham boshiga bir kun shu kun kelishini o‘ylab, titraydi.

Odamzot tug‘ilibdiki, bu dunyoni raqobat maydoni hisoblaydi. Boshqa odamlar bilan kimo‘zarga poyga o‘ynayotganday yashaydi. O‘zi bilan bir xil yoki yuqori, hatto past darajadagi insonni ham raqib sanaydi. Vaholangki, hammamizning yakunimiz bitta. U ham bo‘lsa – o‘lim.

Quyidagi misralarga e‘tibor beraylik:

yirtqichmas,

dushmanmas odamga odam

birodar ekanin eslatib ketar

Shoir bu misrada inson insonga raqib emas, birodar ekanligini, og‘ir kunda insonga faqat insongina Allohning izni ila moddiy yoki ma‘naviy ko‘mak bera olishi mumkinligi haqidagi g‘oyani ilgari suradi. Insoniy tuyg‘ularning eng yuksagi bo‘lmish birodarlik, bag‘rikenglik bilan umr kechirish lozimligi haqida o‘quvchiga uqtirmoqchi bo‘ladi. Odamlar bir-birini raqib sifatida ko‘rishi lozim emasligini aytmoqchi bo‘ladi. Ahamiyat bersak, shoir odamlar bir-biri uchun yirtqich emas deydi. Ma‘lumki, yirtqichlar hech narsadan tap tortmaydigan mavjudotlardir. Shoir ushbu so‘zni qo‘llar ekan, insonlar insonlardan qo‘rqishi yoki qochishi kerak emas, ular zulm o‘tkazmaydi yoki o‘tkazishi kerak emas demoqchi bo‘ladi.

Nihoyat, so‘nggi misralarda shoir qiyomat kunida bo‘lib o‘tadigan voqealarga murojaat qiladi, ya‘ni hamma teng ko‘riladigan, gunoh va savoblar uchun badal to‘lanadigan kun voqealarini qalamga oladi.

Shoir yozar ekan, odamlar orasida begonalar, beparvolar yo‘q ekanligini ta‘kidlaydi. O‘sha paytda odamlarning hammasi bir odamdan- Odam ato (a.s)dan tarqalgan ekanligini anglaydi. Garchi, yer yuzida ham buni aniq bilgan bo‘lsalar-da qiyomat chog‘i bunga yana bir karra amin bo‘ladilar.

Beparvolar yo‘qligining sababi esa bizga, odamzotga eng yaxshi tanish bo‘lgan tuyg‘u-manfaatdir. To‘g‘ri-da, inson umri davomida qilgan amallariga javob olar chog‘i qanday qilib beparvo bo‘la olardiki?!

Yoki jasadni so‘nggi manzilga yuborish holatlarini ham oxirgi misralar ma‘nosiga yaqinlashtirish mumkin. Ushbu daqiqada ham odamlar birgalikda harakat qilishadi, bir-birlariga begona emasliklari yodga tushadi, bir-biriga ko‘mak berishadi, marhumning yaqinlari uchun sabr tilashadi, marhumning o‘zi uchun esa duolar o‘qishadi, birgalikda janoza namozini o‘qishadi. Bu holatda ham insonlar birlashadilar, Ammo shunday bo‘lsa ham, she‘r ma‘nosi ko‘proq mahshar voqealariga yaqinroq keladi.

o‘limga bosh egdim,  
qo‘rqqanimdanmas,  
hurmat qilganimdan boshimni egdim,-  
deydi shoir.

Ta’kidlab o‘tganidek, o‘lim hammani bir xil mavqeda ko‘radigan va hammaga teng ekanligini eslatadigan yagona hodisadir. Adolat tizimi yaxshi ishlamaydigan bu dunyoda o‘lim inson uchun eng adolatli tuzumdek tuyiladi. Aynan shuning uchun shoir o‘limning qudratiga bosh egadi, taslim bo‘ladi. Chunki shoir yashagan davr ham adolatdan yiroq, fisq-u fasodga boy davr bo‘lgan.

Mustamlakachilik davrida odamlar Sovet tuzumidan qo‘rqqani uchungina bosh egishgan, shunga majbur bo‘lishgan, ammo shoir o‘limga qo‘rqqanimdanmas, hurmat qilganimdan bosh egdim, - deydi, ya’ni o‘z xohishi bilan, hech qanday majburlashsiz o‘lim qudratiga taslim bo‘ladi. Birgina shoir emas, butun dunyo, yer yuzidagi jami mavjudod o‘limga bosh egadi. Zotan, o‘limga taslim bo‘lishdan, bosh egishdan boshqa chora ham yo‘q. Isyon qilish befoyda, hatto imkonsiz.

Shoirilar xalq dardini kuylash orqali shoir bo‘ladilar. Xalqning dardi bilan yashamagan shoir- shoir emas.

Bizningcha, Shavkat Rahmon ham bu she’ri orqali o‘sha davr ijtimoiy holatini tasvirlashga uringan. Ijtimoiy tengsizlik, adolatsizlik, aldov, xiyonat, yolg‘onchilik holatlarini yoritib bergan. Tabiiyki, ochiq-oydin gapirish mumkin emas, shu bois shoir xalq dardini she’r mazmuni orqali ifodalashni afzal ko‘rgan.

Atoqli va ardoqli shoir Shavkat Rahmonning she’rlari hamisha xalqqa manzur bo‘lib kelgan. Chunki shoir she’rlarida o‘zining, xalqning sof hissiyotlarini kuylagan. Misralaridagi har bir so‘zni yurakdan chiqarib yozgan. Yurakdan chiqqan so‘z esa, albatta, yurakning tub-tubiga borib, yetadi. Sof tuyg‘ular bilan yo‘g‘rilgan, sodda uslubda yozilgan misralar insondagi mudroq tuyg‘ularni qaytadan jonlanishiga zamin yaratadi. Shuning uchun ham shoirning she’rlari hali hamon yashamoqda, hamon hissiyotlarni uyg‘otmoqda, qayta-qayta tinglansa ham ilk bor yangrayotganday jarang sochmoqda. Shavkat Rahmonning o‘ziga xos uslubi ham, aynan, she’r misralariga yuragini to‘kishidadir. Shu sababli ham uning misralari abadiylikka yuz tutgan, desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Yana shuni xulosa qilishimiz mumkinki, Shavkat Rahmon o‘zbek she’riyatiga o‘ziga xos falsafiy va lirik ohanglari bilan katta hissa qo‘shgan ijodkorlardan biridir. Uning she’rlari inson ruhiyatini larzaga solib, chuqur o‘yga chorlaydi. “O‘lim birlashtirar begonalarni” she’ri orqali u hayot va o‘limning muqarrarligini, insoniy qadriyatlarining ahamiyatini yuksak badiiy ifoda bilan aks ettirgan. Shoir ijodining

o'rganilishi nafaqat adabiyotshunoslar, balki keng kitobxonlar uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Qutlibika Rahimboyeva “Qutlibika. Shavkat Rahmon haqida xotiralar”  
<https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/memuarlar/qutlibika-shavkat-rahmon-haqida.html>
2. Iqbol Mirzo “Shavkat Rahmonning siri. Shoirni yodga olib”.  
<https://kun.uz/news/2020/09/13/shavkat-rahmonning-siri-shoirni-yod-olib#>
3. Shavkat Rahmon “Saylanma”. Toshkent 1997
4. Shoiraxon Xo‘jayeva “SCIENTIFIC ASPECTS AND TRENDS IN THE FIELD OF SCIENTIFIC RESEARCH” International scientific online conference. 112-116.